

KLASSITSIZM DAVRI MUSIQA MADANIYATI

Jumanazarova Sevinch G‘ulom qizi

Guliston Davlat Pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti

Musiqa ta’limi yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada musiqa san’atida klassitsizm oqimining g‘oyaviy mazmuni va badiiy uslubining o‘ziga xos xususiyatlari va klassitsizm davri kompozitorlari haqida yoritilib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Klassitsizm, opera, simfoniya, simfonik poema, kuy, garmoniya, tembr, Vena klassik maktab*

Аннотация: *В статье описываются идейное содержание и художественный стиль течения классицизма в музыке и композиторов эпохи классицизма.*

Ключевые слова: *Classicism, opera, symphony, symphonic poem, melody, harmony, timbre, Viennese classical school*

Annotation: *This article describes the ideological content and artistic style of the classicism movement in music and the composers of the classicism era.*

Key words: *Classicism, opera, symphony, symphonic poem, melody, harmony, timbre, Viennese classical school*

Klassitsizm ([lotincha](#): *classicus* — namunaviy) — [antik davrda](#) o‘z rivojining yuqori cho‘qqisiga erishgan qad. [Yunon](#) va [Rim](#) san’ati merosida shakllanib, unga taqlid qilish natijasida yuzaga kelgan adabiyot va san’atdagi uslub, yo‘nalish. Quroq tarafdorlari XVII—XIX-asrlarda [Fransiyada](#), keyinroq [Yevropaning](#) boshqa mamlakatlarida [Uyg‘onish davri](#) an‘analarini davom ettirgan holda (inson aql zakovatiga ishonish, antik davr yaratgan ideal mutanosiblikni va nisbatlarni tan olish va e‘zozlash), o‘z zamonasining ijtimoiy hamda [estetik](#) talablariga javob tariqasida vujudga kelgan. Antik davr mifologiyasi (rivoyatlari), tavrot voqealariga murojaat qilib, ulardan olingan syujetlar orqali o‘z davrlarining etik — axloqiy va siyosiy muammolarini ko‘tarishta harakat qildilar. Quroqda ham umumlashma asar yaratish asosiy masala hisoblanadi, asarlar birmuncha vazmin, ritm va nafis musiqaviylikka intilish asosida yaratildi. Odatda, Quroq rivoji tarixi 2 bosqichga ajratiladi. 17-asr Fransiyada shakllangan Quroq o‘zida absolyutizm g‘oyalarini ifodalagan bo‘lsa, 18-asrga kelib Quroq yangi dunyoviy ideallar, ma’rifatparvarlik g‘oyalari va oddiy xalq orzu-istaqlari va intilishlariga asoslangan ideallarga tayangan holda rivojlandi. Quroqga xos belgilar dastlab Italiya nafis san’atida (16-asrning 2-yarmi) paydo bo‘lgan (A. Palladio, J. Vinola, S. Serlio, J. Bellori nazariy va amaliy faoliyatida, shuningdek, Bolonya akademik maktabi rasmiy hujjatlari va hokazo), 17-asr ga kelib Fransiyada barokko tamoyillariga qarshi kurashda Quroq ildamlab, yaxlit uslubiy tizimga, 18-asrga kelib umumevropa uslubiga aylandi.

Musiqada Klassitsizm uslubi 17-asrda paydo bo‘lib, birinchi navbatda opera janrida o‘z aksini topdi (Fransiyada J. B. Lyulli, Italiyada "neapolitan opera maktabi" vakillari).

Unga xos estetik va ijodiy tamoyillar badiiy asarlardagi aniq mantiqiy g'oya, tugal va mukammal kompozitsion tuzilish, musiqa janrlari o'rtasidagi chegaralarning aniqligida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga Klassitsizmda ijodiyotdagi aql va hissiyot hamda haqqoniyat va g'ozallik asoslarining o'zaro muvozanati muhim o'rin tutadi. 18-asrda Klassitsizm uslubi Yevropaning boshqa mamlakatlari (Avstriya, Germaniya, Rossiya va boshqalar)da ham tarkib topdi va o'z cho'qqisiga ko'tarildi (qarang [Vena klassik maktabi](#)).

Vena klassik maktabi - 18-asr ning 2-yarmi va 19-asrning boshida Venada musiqa san'atida qaror topgan ijodiy yo'nalish. Asoschilari — Y. Gaydn va V. Motsart. L. Betxoven Vena klassik maktabining so'nggi va yuksak davrini tashkil qiladi. Operada isloh boshlagan X. Glyuk (1714—87) ijodi ham shu oqim bilan bog'liq. Ma'rifatparvarlik va Buyuk Fransiya inqilobi g'oyalari ta'sirida shakllangan bu yo'nalishning muhim ijodiy belgilaridan kelajakka ishonch, voqelikni taraqqiyot jarayonida ko'rsatish, insonparvarlik va xalqchilik bo'lgan. Vena klassik maktabining kompozitorlari professional va xalq musiqasi rivoji tajribasini umumlashtirdilar. universal musiqa tilini ishlab chikdilar. Ularning ijodida simfoniya, sonata, konsert, kvartet kabi janrlar o'zining mumtoz shaklini topdi. yangi xildagi opera hamda simfonik orkestrlari vujudga keldi va opera janri isloh qilindi.

Vena klassik maktabining musiqa tarixida eng muhim davrlardan biri hisoblanadi; musiqa san'atining keyingi rivojiga barakali ta'sir ko'rsatib, turli milliy kompozitorlik maktablari yuzaga kelishida muhim rol o'ynab kelmoqda. Shu davr Klassitsizm oqimi ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib, muayyan asarlarida izchil xalqchilik, hayotni ichki ziddiyatlarning dinamik rivoji orqali, to'laqonli aks ettirilishi bilan ajralib turdi (yana qarang [Simfonizm](#)).

O'zbekistonda Klassitsizm belgilari 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida me'morlik san'atida V. Geynselman, A. Benua, G.Svarichevskiy qabilar ijodida (Sharq Vizantiya, Rim-Vizantiya shaqllari) qo'llandi. Bino kapitellari ioni orderi o'rnida uslublashtirilgan paxta bezagi o'z ifodasini topdi. Ma'muriy binolar bosh tarzini qator ustunli baland va hashamatli qilib barpo qilishda qad. mumtoz uslub qo'llanilib, milliy me'morlik an'analari qo'shimcha qilingan.

O'zbekistonda Klassitsizm ning so'nggi ko'rinishi — akademizm yo'nalishi ko'proq S. Yudin, R. Zommer, I. Karnovlarning syujetli kompozitsiyalarida o'z ifodasini topdi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Vena_klassik_maktabi
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Klassitsizm>
3. https://www.google.com/search?q=klassitsizm+manosi&sca_esv
4. <https://imlo.uz/word/klassitsizm>
5. https://dzen.ru/a/Ym_e5O-x5QDbSybp

